O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

## BOSHLANG’ICH TA’LIM VA TARBIYAVIY ISH YO’NALISHI

**«UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYaSI VA AMALIYoTI» FANIDAN**

**«O’QUVChILARNING FUQAROLIK TARBIYaSI»**

**MAVZUSIDAGI**

# REFERAT

**Bajaruvchi: 1-bosqich talabasi N.Suyunova**
**Ilmiy rahbar: Sh.O’roqov**

Kurs ishi pedagogika kafedrasida bajarildi.

**Kafedra mudiri: dots. A.Abdumannotov**

Kurs ishi kafedraning 2012-yil ___ iyunda bo’lib o’tgan ___-sonli majlisida himoya qilindi va ______ foizga baholandi

**Komissiya raisi:** _____________

**A’zolari:** _____________

_____________

_____________

_____________

**SAMARQAND – 2013**

Reja

**ASOSIY QISM:**

**1. Fuqarolik jamiyati va shaxs fuqarolik madaniyati**

**2. «O'kish» darslarida huquqiy bilim va tushunchalarni shakllantirish yo'llari**

**3. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga huquqiy tarbiya berishning shakllari**

**Xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

## Kirish

O’rta asrlardayoq ensiklopedist olim va buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiy tarbiyaning asosiy maqsadi - jismoniy barkamollikni yuksak bilimdonlik bilan, madaniyatni mehnatsevarlik bilan, ahloqiy soflikni fuqarolik his-tuyg’ulari bilan, insonparvarlikni vatanparvarlik odobi bilan yaxlit holda o’zida tarkib toptirgan shaxsni voyaga yetkazishdan iboratdir deb ta’kidlagan edi. Zero, tarbiya yordamida kishiga insoniy xislatlar qanoat, insof, diyonat, kattaga hurmat, kichikka izzatda bo’lish singdiriladi, ana shu fazilatlar kishilarda insoniy ma’naviy – axloqiy salohiyat va ijtimoiy faollikni oshirib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtiradi. Shuning uchun ham tarbiya va uning qayd etilgan maqsadi **«Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari»** tamoyili asosida dadil rivojlanayotgan mamlakatimiz uchun muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan ham mamlakatda amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar, avvalambor, shu islohotlarni amalga oshirishga faol ishtirok etadigan, umuminsoniy qadriyatlarni mukammal egallagan, sog’lom, iymon-e’tiqodli, aqlan teran, axloqan pok, o’z haq-huquqlari, burch va mas’uliyatlarini chuqur anglaydigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Ma’lumki, O’zbekistonda demokratik va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jadal sur’atlar bilan amalga oshirilmoqda. Buning uchun Respublika Prezidenti ta’kidlaganidek: “Odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning iymon-e’tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish ularni o’z mustaqil fikriga ega bo’lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash. Ularning tafakkurida o’zligini unutmaslik, ota-bobolarning muquddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish. Ularning men o’zbek farzandiman, deb, g’urur va iftixor bilan yashashiga erishish darkor”.

Bunga yoshlarimiz qalbida milliy tafakkur va sog’lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularning ongli fikr yuritishga o’rgatish, ularni mustaqil bilim olishga yo’llash, turli mafkuraviy tajovuzlarga qarshi sobitlik ko’rsata olishga qodir, irodali, fidoyi, shijoatli va diyonatli insonlar bo’lib yetishishlarini

tarbiyalashga yo’naltirilgan faoliyatni tashkil etish orqali erishish mumkin. Zero, vatanparvar, mehnatsevar, o’zligini anglagan insonlargina respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni to’la amalga oshirishga qodir bo’ladi.

Vatanparvarlik, mehnatsevarlik, milliy o’zlikni anglash negizida shakllanuvchi milliy dunyoqarash ijtimoiy - iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyot yo’lini aniq ko’rsatuvchi, ko’zlangan maqsaddan chetlanmaslikka yo’naltiruvchi yo’lchi yulduz, ishonchli kompas bo’lib xizmat qiladi. Bunday dunyoqarashga ega bo’lgan har bir insonda o’z millatiga, ona tabiatiga, shu yerda yashayotgan xalqlarga, muhabbat, o’lkaning tarixi, madaniyati, an’analarini teran bilib olishga intilish, shu vatan, shu xalqning qudratidan va yutuqlaridan faxrlanish, mamlakat qismatiga tushgan nosozliklardan qayg’urish his-tuyg’ulari kuchli bo’ladi. Bunday insonni ma’naviyati, madaniyati yuksak inson deyishgan. Binobarin, Mustaqil Respublikaning bozor munosabatlariga o’tish, milliy mustaqillikni mustahkamlash va rivojlantirish sharoitida yoshlarda ma’naviy-axloqiy salohiyat, aqliy zakovat ko’nikmalarini tarkib toptirish, ularda vatanparvarlik, erksevarlik, o’z haq-huquqlari, majburiyat va burchlariga mas’uliyat bilan qarash his-tuyg’ularini shakllantirishga alohida e’tibor berilayotgani bejiz emas. Shuning uchun ham mamlakat oliy o’quv yurtlari oldida ilg’or xalqaro tajribalarni inobatga olib, kasbiy mehnat bozorining o’zgaruvchan sharoitida o’z o’rnini topa oladigan, yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxasislarni tayyorlash tizimining ilmiy asoslangan bo’g’inini yaratish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish bilan bog’liq islohotiy jarayonlarning mahsulli va istiqboli yo’nalishlarni vujudga keltirish, bo’lajak mutaxassislarni har tomonlama kamol toptirish bosh maqsad qilib qo’yilgan. Demak, mamlakatda demokratik o’zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish uchun, avvalo, uning quruvchilari bo’lmish yosh avlodni fuqarolik tarbiyasini takomillashtirish lozim. Shuningdek, o’quvchi-yoshlar fuqarolik tarbiyasini takomillashtirish va shu asosda ularda fuqarolik madaniyatini shakllantirish jahonda ro’y berib, kuchayib borayotgan xalqaro terrorizm, diniy fundalintalizm va ekstremizmning yoshlar ongi va qalbini egallashga urinayotganligining oldini olishga qaratilgan tadbir hisoblanganligi

uchun ham nihoyatda dolzarbdir. Muammo dolzarbligining yana bir muhim jihati - ayrim hudud va mintaqalarda ayrim yoshlarning o'qishga, mehnatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qiziqishining susayib, ular o'rtasida nashavandlik, ichkilikbozlik, huquqbuzarlikka ishtiyoqning kuchayib borayotganligidir.

**Tadqiqot maqsadi:** Fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan o'quvchi-yoshlarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish mohiyati va fuqarolik tarbiyasini amalga oshirishning shakl va metodlarini aniqlash.

**Tadqiqot obyekti:** O'quvchilarning fuqarolik tarbiyasini amalga oshirish jarayoni

**Tadqiqot predmeti:** O'quvchilarni fuqarolik tarbiyasini amalga oshirish shakl va metodlari

**Tadqiqot vazifalari:**

1. Mavzuga oid ilmiy-nazariy manbalar, ilmiy tadqiqot ishlari va pedagogik darsliklarni tahliliy o'rganish

2. Fuqarolik jamiyati va fuqarolik madaniyati tushunchalarini yoritish

3. «O'kish» darslarida huquqiy bilim va tushunchalarni shakllantirish yo'llarini o'rganish

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga huquqiy tarbiya berishning shakllarini belgilash

## ASOSIY QISM:

### 1. Fuqarolik jamiyati va shaxs fuqarolik madaniyati

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimiz tiklandi, o'tmish allomalari, xalq farzandlarining muborak nomlari yuzaga chiqdi, O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari ishlab chiqilib xalq e'tiboriga yetkazildi. Bular:

"- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish.
- vatanparvarlik", (11,56) dan iboratdir.

Ushbu ma'naviy - axloqiy negizlar zamirida «….. insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi» - muhim ahamiyat kasb etib, uning mazmun-mohiyatida umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligi asosida mamlakatda kuchli demokratik huquqiy davlatni yanada rivojlantirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning imkoniyatlari ochib berildi. Endi xalq o'z haq-huquqlari, fuqarolik burchi, mas'uliyati, majburiyatiga tayangan holda «Kuchli davlatdan↔kuchli fuqarolik jamiyati sari» tamoyili asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sari dadil odimlamoqda.

"Biz uchun fuqarolik jamiyati ijtimoiy makon, - deb aytgan edi Respublika Prezidenti I.A. Karimov. Bu makonda qonun ustivorligi bo'lib, u insonni o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishida ko'maklashadi". (11, 554)

Ilmiy – ijtimoiy va metodologik ma'lumotlarga ko'ra fuqarolik jamiyatida davlatga va davlat tuzilmalariga taaluqli bo'lgan ko'pgina masalalar fuqarolar va ular tashkil etgan tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy – ma'rifiy hayotda fuqarolar faol, mustaqil, ijodiy ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar, ular davlat tuzilmalari faoliyati ustidan nazorat o'rnatish, o'z manfaatlariga xizmat ko'rsatish munosabatlarini tarkib toptirish huquqiga ega bo'ladilar.

Shu yo'sinda davlat jamiyatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etsa, o'z navbatida jamiyat davlatni mustahkamlashuvi hamda uning barcha yo'nalishdagi sohasini takomillashuviga yordam ko'rsatadi.

"Fuqarolik jamiyatini ideal holda tasavvur qiluvchilarning ta'kidlashicha, - deb yozadi akademik M.Sharifxo'jayev, - bu jamiyat ochiq odil jamiyat bo'lib, unda erkin va teng huquqli shaxslar istiqomat qilishadi, ular o'z fuqarolik hamda siyosiy huquqlariga ega bo'lishadi, davlatni boshqarishda faol ishtirok etishadi, fikrlarini oshkora aytish, ehtiyojlarini har tomonlama qondirish, o'z maqsadlariga mos keladigan uyushma va tashkilotlar tuzish imkoniyatlariga ega bo'lishadi" (146,5).

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati g'oyasining nazariyotchilari mazkur davlat va jamiyatning ijtimoiy - iqtisodiy, ma'naviy - ma'rifiy belgilari va xususiyatlarining nazariy asoslarini ishlab ekanlar, bunday davlat va fuqarolik

jamiyati insoniyat sivilizasiyasining ilk davrlaridanoq «ideal davlat», «ideal jamiyat», «ideal shaxs» tarzida tasavvur qilinib, uning mazmuni, shakllanish bosqichlari hozirgi kunda O'zbekistonda shakllanayotgan fuqarolik jamiyati xususiyatlari bilan hamohangdir, deb ta'kidlaydilar.

Ilmiy - nazariy ta'limot va tajribaning ko'rsatishicha fuqarolik jamiyatida barcha masalalar qonunlar, huquqiy me'yorlar asosida adolatli yo'l bilan hal etiladi. Yuksak ma'naviyatli, insonparvar, vatanparvar kishilar o'z shaxsiy manfaati va maqsadlarini demokratik va adolatli talablardan ustun qo'ymaydilar. Chunki qonun oldida bunday jamiyatda barcha teng huquqlidir. Shunga ko'ra ushbu xulosalardan kelib chiqib aytish mumkinki, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish uchun, avvalo, davlat va unga tegishli bo'lgan subyektlar, institutlar, mahallalar, mehnatkashlar, avvalo, yoshlarning faoliyatini fuqarolik jamiyatining xususiyatlarini mukammal o'rganib chiqishga, va shu asosda mamlakatda mustahkam iqtisodiy rivojlanish, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, jamiyat kishilarida axloqiy-huquqiy savodxonlikni tarkib toptirish lozim bo'ladi. Buning uchun dastlab fuqarolik jamiyatining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Inson erkinliklarini himoya qilish, fuqarolarning jamiyatdagi nufuzini ko'tarish zardushtiylik dinida aloxida e'tirof etilgan. Qonunlarning fuqaro erkinligini himoya qilishiga katta e'tibor qaratilib, ular uch tayanchga "fikrlar sofligiga", "so'zning sobitligi", "amallarning qat'iyligi"ga asoslangan bo'lishi ta'kidlangan. Bu uch asosda iymonli, pok, yaxshi va oliyjanob ezgu ishlar amalga oshirilgan.

Jamiyatda qonun ustuvorligi, inson manfaatlari va huquqlarining daxlsizligi kafolatlanganligini, biz Amir Temurning «Temur tuzuklari» risolasida ham uchratamiz. «Temur tuzuklari»ning ikkinchi maqolasida «Men o'z saltanatimni boshqarishda har qanday voqyea va ishni **tuzuk** asosida bajardim. Shariat qonunlariga itoat qilish, urf-odatga e'tibor berish men uchun katta axamiyatga ega edi.

Demak, fuqarolik jamiyatida inson erkinligi ta'minlanadi, huquq ustivorligiga amal qilinadi, erk va huquqni insonlar o'zlarining suyanchig'i deb qabul qiladilar. Yuksak ma'naviyatlilikning birinchi belgisi, bu jamiyat kishilarining erkinligidir, ya'ni jamiyatning har bir a'zosi o'zini ozod hur ijtimoiy himoyalangan shaxs tarzida his etishidir. Zero, Sh.Rizayev ta'kidlaganidek, "... "fuqaro" tushunchasi bilan "erkinlik" o'zaro hamohang va ma'nodosh. Chunki "fuqaro" (grajdanin) tushunchasining o'zi, tarixan olib qaraganda, hurriyat va erkinlik, teng huquqlilik uchun kurash jarayonida paydo bo'lib qaror topgandir. (Shuning uchun ham fuqarolik jamiyati qullik va mutelikni, har qanday irqiy, milliy kamsitishlar, ijtimoiy ayirmachiliklarni rad etadi)".

Bugungi kunda fuqarolik jamiyati xalqning maqsad-muddaolari, orzu-intilishlari, uning kelajak farovon va ozod hayotini ifodalagani uchun baralla aytish mumkinki, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etish uchun erkin, baxtli fuqaro hamda ozod va barkamol shaxsni tarbiyalash lozimdir. Buning muxim imkoniyati esa - mustaqillikdir.

Qonunlarning ijro etilishi uchun jamiyatning barcha sohalaridagi shaxslar va fuqarolarning o’z haq-huquqini tanishi hamda uning uchun kurashishi lozim. Bu jamiyat kishilarida fuqaro erkinligining shakllanganligini, ularda erkin shaxs tushunchasining tarbiyalanganligini aks ettiruvchi omil bo’lmog’i darkor. Bu omil insonning erki va haq-huquqidir. Shundagina inson erkin mulohaza yuritish qobiliyatiga ega bo’lib, haq qayerda, nohaqlik qayerdaligini fahmlaydi, to’g’ri xulosaga ega bo’lib, o’z xalqi, o’z Vatani taqdirini o’ylaydigan, u bilan qayg’uradigan bo’ladi. Soxta g’oyalar, g’arazli ta’limotlarga, jaholatga berilmaydi va ularga nisbatan murosasiz bo’ladi.

Buni chuqur his qilgan respublika Prezidenti I.A.Karimov o’zining «O’zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli risolasida mamlakatni rivojlantirish, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilashning oltita ustuvor yo’nalishini ilmiy-nazariy jihatdan asoslar ekan, uning ikkinchi ustuvor yo’nalishi **«jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish»**dan iborat bo’lmog’i kerak, deb ta’kidlaydi. Bu yo’nalishning muhim vazifalaridan biri esa erkin, ozod, kurashchan va faol fuqaroni tarbiyalashdir. Faol va erkin fuqarok Prezidentning fikricha:

“- o’z haq – huquqlarini taniydigan;

- o’z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan;
- atrofida sodir bo’layotgan voqyea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan;
- shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg’un holda ko’radigan erkin, har jixatdan barkamol inson» bo’lishi darkor (7,17). Buni shaxs fuqaroligining aniq va to’liq tasvirlangan ta’rifi deb aytish mumkin. Darhaqiqat, fuqaroning yuksak fazilati–bu yurt, millat, jamiyat ko’rki, yuzi va ko’rki demakdir. Aynan yuksak insoniy fazilatli fuqarolargina, erkin, ozod fikr yuritib, yurt ravnaqini ta’minlab, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga katta hissa qo’shadilar va mamlakatda olib borilayotgan isloxotlarning mas’ul kishilariga aylanadilar. Ularda ishbilarmonlik, tashabbuskorlik, bunyodkorlik yuksak darajada rivojlangan bo’ladi. Ular o’z ijodiy tafakkurlari, ezgulikka yo’naltirilgan shuuri va shukuhlari bilan xalqni bunyodkor g’oyalar sari yetaklaydilar, millat ruhini uyg’otadilar, beorom, notinch xalq qayg’usi va el tuyg’usi bilan yonib yashaydilar.

**Fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruviga ishtirok etishi–fuqarolik jamiyatining o’ziga xos to’rtinchi xususiyati hisoblanadi.** Darhaqiqat, Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o’tib borgan sari fuqaro bilan davlat o’rtasidagi munosabat yangilanib boradi va siyosiy boshqaruv tizimi kamayib, fuqarolarning o’z-o’zini boshqarishi kuchayadi. Demokratik, adolat hukumronlik qiladigan jamiyat bir-birini to’ldiruvchi hamda takomillashtiruvchi organlardan, ya’ni davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning siyosiy partiyalar hamda jamoatchilik birlashmalaridan tuzilgan boshqaruvidan iborat bo’lib, o’z-o’zini boshqaruvchi fuqarolar jamiyati ahamiyatli bo’lib boradi. Bunda oddiy xalq, ya’ni mehnatkashlarning faolligi, bunyodkorligi, ijodkorligi, tashabbusi ortadi va insonlarning qadr-qimmati, manfaatining ustivorligi ta’minlanadi, hamda ijodiy mehnatiga e’tibor kuchayadi. Bu esa fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvi ishlariga ishtirokini faollashtiradi.

Sharq tafakkurida, ayniqsa IX-XIV asrlardagi ilk uyg'onish davri allomalari Abu Nasr Farobiy, Abu rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur ta'limotlarining badiiy-falsafiy va mamlakatni boshqarish – to'g'risidagi ta'limotlarda, bandida fuqarolik jamiyati va uning boshqaruvi to'g'risida juda qimmatli nazariy-amaliy fikrlar g'oyalar bayon etilganki, ular hanuzgacha o'z mazmun-mohiyatini yo'qotgan emas va fikrimizcha yo'qotmaydi ham. Zero, u milliy mafkura g'oyalari ham bilan hamohangdir. E'tirof etish joizki O'rta asr allomalari va davlat arboblari ta'limotlarining mazmunida insonparvarlik, adolatparvarlik, erk, ozodlik uchun kurash va xalqparvarlikning umumjahoniy ruhiyati mujassamlashgan bo'lib, bunday ruhiyat asosida tarbiya ko'rib, uning shaffof bulog'idan qongan har qanday kishi demokratiya tamoyillari bilan qurollangan fuqaro, ozod ruhiyatli insonga aylanishi muqarrardir. Va ular tom ma'noda turli mavzularda jahon hamjihatligi fuqarolari bilan to'laqonli bahsga kirisha oladigan dovyurak, o'ktam zehnli, aql-zakovatli, ma'naviy-axloqiy salohiyatli, ruhan sog'lom, jismonan baquvvat insonlar bo'lib yetilib, o'z haq-huquqlarining kamsitilishiga yo'l qo'ymaydigan, yuksak ma'naviyatli insonlar bo'lib shakllanadilar.

**Mustaqillik** biz uchun, avvalo, o'z taqdirimizga egalik qilish huquqi, kelajagimizni o'z qo'limiz bilan barpo etish, yurtimiz boyliklaridan faqat xalqimiz va vatanimiz manfaatlari yo'lida foydalanish demakdir".

Ushbu da'vat o'quvchi-yoshlarning siyosiy-madaniy faolligini oshirish, ilmiy dunyoqarash, axloqiy-estetik ideallarini shakllantirish orqali mustaqillikni mustahkamlab, demokratik huquqiy davlat asoslarini yanada chuqurlashtirish va buning uchun esa kelajak avlodda fuqarolik madaniyatini tarbiyalashga undaydi.

Ma'lumki, inson aql ko'zi, qalb qo'ri, mohir qo'li bilan nimaniki yaratmasin uning zamirida bilim, qobiliyat, iste'dod, tajriba, ijod, fikr va mehnat orqali tarkib topgan uning madaniy faoliyati yotadi. Bu faoliyat jamiyatdagi ijtimoiy-ijodiy hayot, qonun-qoidalar, taraqqiyot tamoyillari bilan bog'liq holda takomillashib boradi. Bu takomillashuv inson ongida fikr, g'oya shaklida tarkib topib uning madaniyatliligini ifodalaydi. Shunga ko'ra, fuqarolik jamiyati shaxslarining fuqarolik madaniyatini ideal holda tasavvur qilish – bu faol, erkin, teng huquqli, tadbirkor, tashabbuskor, ishbilarmon insonlarni tarbiyalash hamda ularda fuqarolik burchi, ma'suliyati, majburiyati, shaxslararo munosabatni yuksak darajada tarkib toptirishi, ularni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotga faol ishtirok etish, o'z fikrlarini oshkora bayon qilib ehtiyojlarni to'la qondirish demakdir.

Fuqarolik jamiyati shaxsning fuqarolik madaniyati modeli, mamlakatda quyidagi masalalarni maqsadga mufoviq hal etishga amaliy yordam bera olishi mumkinligini, tadqiqotimiz ko'rsatdi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning fuqarolik jamiyatini qurish to'g'risidagi ma'ruzalari asosida fuqarolik tarbiyasini amalga oshirish va shaxs fuqarolik madaniyatini shakllantirish bo'yicha mulohazalarini, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksini mukammal o'rganishni yo'lga qo'yish orqali talaba – yoshlarda axloqiy-huquqiy burch, majburiyat, fuqarolik tuyg'usini tarkib toptirish;

- o’quv – yurtlarining turli millatga mansub bo’lgan o’quvchi-yoshlari yoshi, irqi, jinsi, e’tiqodi, dinga munosabati, qalbida millatidan qat’iy nazar mamlakatimiz mustaqilligini, uning davlat ramzlari-tamg’asi, bayrog’i, madhiyasi, armiyasi, valyutasini hurmat qilish va ular bilan faxrlanish his-tuyg’ularini tarbiyalash;
- dunyoda g’oyaviy qarama-qarshiliklar keskin tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko’proq kuchga ega (I.Karimov) bo’layotgan hozirgi vaqtda o’quvchi-yoshlar mafkurasida ijtimoiy-siyosiy faollik va fuqarolik madaniyati ko’nikmalarini hosil qilish va rivojlantirish;
- ta’lim muassasalari o’quv rejasidan o’rin olgan fanlarni, ayniqsa ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitish jarayonida o’quvchi-yoshlarda fuqarolik madaniyati tushunchasi, uning tuzilishi va funksiyalari haqida fundamental ma’lumot berishga erishish;
- o’quvchi-yoshlarda fuqarolik jamiyati va fuqarolik madaniyati asoslari to’g’risidagi tasavvurlarini shakllantirib, ularda fuqarolik ma’naviyati, fuqarolik axloqi, fuqarolik huquqi, fuqarolik odobi, fuqarolik tafakkuri va ko’nikmalarini hosil qilish;
- turli o’quv – tarbiyaviy tadbirlar tashkil qilib, talaba – yoshlarda o’tmish merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, an’analarga hurmat, ularni asrab-avaylash, ko’paytirish hamda ular bilan faxrlanish, g’ururlanish hissini tarkib toptirishga erishish;
- uzluksiz ta’lim jarayonida o’quvchi-yoshlarda Vatan, oila, mahalla, millat ishiga sadoqat, yurt, xalq, mehnatkash fuqaro manfaatini o’z shaxsiy manfaatidan ustun qo’yish tuyg’usini tarbiyalash va fidoiy, insonparvar, adolatparvar, mehnatsevar fuqaro bo’lish ishtiyoqi va ehtiyojini tarkib toptirish hamda ularga fuqarolik burchi, fuqarolik hissi, fuqarolik ma’suliyati, fuqarolik majburiyati kabi tushunchalar haqida ma’lumot berib, bu tushunchalarni o’zlarida tarbiyalash malakalarini hosil qilish;
- Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni yaratuvchi, uni e’zozlovchi hamda uni turli ofatlardan asrab-avaylovchi, himoya qiluvchi fuqaro bo’lish his-tuyg’usini har bir talaba – yoshning shaxsiy ehtiyojiga aylantirish;
- fuqarolik jamiyati uchun muhim bo’lgan shaxs fuqarolik madaniyatining milliy g’oya va milliy ma’naviy qadriyatlar bilan uyg’unligini, uzviyligini, yaxlit bog’liqligini e’tirof etgan holda o’quvchi-yoshlarda milliy g’oya va milliy ma’naviyatga ishonch, e’tiqod his- tuyg’ularini shakllantirish;
- mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va insonning insonligini ro’yobga chiqarishda fuqarolik madaniyatining yetakchi omil ekanligini inobatga olib, o’quvchi-yoshlarning insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy o’zlikni anglash, iymon-e’tiqod kabi mezonlar mohiyati anglab yetishga amaliy yordam ko’rsatish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni ta’lim muassasalarida amalga oshirish – bu o’quvchi-yoshlarda erk va ezgu maqsadlar milliy mustaqillik, xalq muddaosi va fuqarolik jamiyatiga xos muhim belgi ekanligini anglab yetishga, buning uchun esa har bir talaba o’qishning ilk davridan boshlab o’z fuqarolik madaniyatini tarkib toptirishi zarurligini tushunib yetishiga erishishdir. Shunga ko’ra aytish mumkinki, mustaqillikni asrab-avaylash, mustahkamlash va rivojlantirishda yosh avlodning

fuqarolik madaniyati qudratli kuch ekan, uni amalga oshirish uchun quyidagi tadbirlarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Buning uchun oliy ta'lim maktablarida:

a) ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy muhitni yaratish;

b) o'quv –tarbiya ishlari hamda auditoriyadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy tarbiya tadbirlarining samaradorligini yanada oshirish;

v) milliy mafkura targ'ibotiga e'tiborni kuchaytirib milliy merosimiz an'analaridan, qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan to'liq foydalanishni kuchaytirish;

g) o'quvchio'quvchi-yoshlarning sog'lom turmush tarzini rivojlantirish;

d) o'quvchi-yoshlar shaxsida fuqarolik madaniyatining ko'rsatkichlarini individual singdirishning ilmiy-metodik dasturini ishlab chiqish va amalda qo'llash;

ye) o'quvchi-yoshlarning axloqiy-huquqiy bilim, siyosiy ong, estetik did, va madaniyatining rivojlanishiga erishish;

j) yoshlarning ilmiy-nazariy, amaliy-ma'naviy bilimlarini o'stirish orqali ularning tarbiyalanganlik darajasini o'stirish;

z) davlat va nodavlat tashkilotlar, oliy ta'lim, mahalla, oilaning tarbiyaviy hamkorligini aniq yo'lga qo'yish.

Mazkur tadbirlar o'quvchi-yoshlarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning tamal toshi hisoblanadi. Ularni pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq amalga oshirish uchun, avvalo, "fuqarolik madaniyati" tushunchasini, uning mazmun-mohiyatini, funksiyalarini teran anglamoq darkor.

## 2. «O'qish» darslarida huquqiy bilim va tushunchalarni shakllantirish yo'llari

## Mavzu: «O'zbekistonim-Vatanim manim».

**Ko'zlangan maqsad: O'q**uvchilarning jannatmakon Vatanimiz Uzbekiston xakida 1,2 va 3- sinflarda olgan dastlabki bilimlarini mustaxkamlash, yanada boyitish. «Uzbekiston suveren-demokratik respublika», «Xalk davlat xokimiyatining birdan-bir manbaidir», Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Uzbekiston Respublikasi Prezidenti, Uzbekiston Respublikasining Vazirlar Maxkamasi atamalari mazmun-ma'nosini,kafolatlarini ukuvchilar ongiga singdirish. «Vatan» iborasi shunchaki oddiygina ibora bulmasdan,juda keng va uta gurur-iftixor manbasi ekanligini yetarlicha anglatish.Vatan suzining aziz xamda mukaddas ekanligini tushunib yetishlariga,Vatan uchun xar kachon,xar kanday sharoitda fidokor bulishlari zarurligini ich-ichidan,yurakdan xis eta olishlariga erishish.

**Natija:** «Vatan» tushunchasi iloxiy,mukaddas suz ekanligini anglaydi.Butun xayoti,faoliyati davomida ona-Vatanimiz Uzbekistonning gullab-yashnashi uchun xizmat kiladi.

**Kerakli ashyolar:** Bepayon Vatanimiz Uzbekiston xakidagi,uning boyliklari-yu,kuch-kudrati, ijodkor va yaratuvchi xalki ifodasidagi maxsus filmlari,telekursatuvlar yozuvi lentalari va ularni namoyish etish texnik vositalari,bular tugrisidagi standart va rangli tasvirdagi ukituvchi tomonidan tayyorlangan maxsus jadval-kurgazmalar.

## Mavzuni yoritish yul-yuriklari:

**Birinchi tadbir:**Sinf doskasiga kuyidagi ma'lumotlar bitilgan kurgazmani iling: «Uzbekiston istiklolga erishganiga 10 yil tuldi.Shu vakt ichida Uzbekistonda ulkan uzgarishlari sodir buldi.Jamiyatda siyosiy parokandalik,bulinish yuz bermadi.Tinchlik va totuvlik xukm surdi. Xalkimiz jipslashdi. Davlatimiz poydevori mustaxkamlandi. Uzbekiston jaxon mikyosiga chikdi.Bugungi Uzbekiston ijtimoiy-iktisodiy xayotda muxim isloxotlarni amalga oshira borib,tarakkiyot sari dadil kadam tashlamokda.Utgan kiska vakt ichida siyosiy tizimdan tortib,iktisodiyotning xamma tarmoklari,ma'naviyat tubdan uzgardi, davlat va jmiyat xayotining xukukiy poydevori yaratildi». Matnni barchaning dikkatini jalb etgan xolda ukib bering va uning mazmun-moxiyatini tushunib yetishlarini ayting.

**Ikkinchi tadbir:** Sinf doskasiga birinchi kurgazma urniga ikkinchi kurgazmani iling.Unda kuyidagi ma'lumotlar bulishi kerak. «Amudaryo bilan Sirdaryo oraligida joylshagan xamda Movarounnaxr yoki Turkiston nomlari bilan mashxur bulib kelgan Vatanimiz asrlar mobaynida jaxon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bulgan.Buyuk ipak yulida joylashgan,Shark va Garb mamlakatlarini bir-biriga boglovchi,ularning faol savdo-iktisodiy va ma'naviy xamkorligi tugiladigan joy xisoblangan.Mamlakatimz buyuk siymolar makon tabarruk zamindir.Xalkimiz-Imom Buxoriy,Iso Muxammad,At-Termiziy va Xakimat-Termiziy,Abu Nasr Farobiy,Axmad Yassaviy,Baxouddin Nakshband,Al-Xorazmiy,Al-Beruniy,Ibn Sino,Alisher Navoiy,Ulugbek,Bobur kabi mutafakkirlar nomlari bilan,Amur Temur kabi Samarkand – davlat boshkaruvchisi kabi sarkardalari bilan xakli suratda faxrlanadilar».Matnni barcha ishtirokchilarga ukib bering va Vatanimiz geografik joylashishini,ulug siymolari nomlarini eslab kolishlarini iltimos kiling.Yoki bir necha savolar orkali ona-Vatanamizning geografik urni , boyliklari xamda buyuk siymolari xakida ukuvchilarning mustakil bilimlarini aniklang.

**Uchinchi tadbir:** Ikkinchi kurgazmani uchinchi kurgazma bilan almashtiring.Unda kuyidagi fiklar buladi: «Mustakillikka erishilgan kundan buyon

utgan yillar mobaynida Uzbekistonning siyosiy tizimida ya’ni davlat boshkaruvida ulkan va jiddiy uzgarishlar yuz berdi.Mamlakatimiz tarixida birinchi-bor Prezident saylandi.Vakillik xokimiyatini vujudga keltirishning jaxondagi eng demokratik tizimlaridan biri tashkil etildi.Uzbekiston Parlamenti-Oliy Majlis ilk marta kup partiyaviylik asosida saylandi.Davlat boshkaruvi,Vazirliklar,tashkilot va korxonalar tizimi uzgartirilib,ular yangi tartib – xayot talablari asosida ish olib bormokda.Eng muximi,davlat va jamiyat xayotining xukukiy poydevori yaratildi.Eng yuksak demokratik talablariga javob beradigan mustakil Uzbekiston Respublikasining Asosiy Konuni – birinchi Konstitusiyasi kabul kilindi.Xokimiyat bugինining konstitusion tamoyillari asosida bir kancha konunlar ishlab chikildi va xayotga joriy etildi.Ijro va sud xokimiyati tarmoklari shakllandi.

Mamlakatimizda siyosiy uzgarishlarga mos ravishda ixcham,ochik va tadrijiy rivojlanishga ega bulgan ijtimoiy tizim yaratildi.Umummilliy yakdillikka erishilib,siyosiy isloxotlarning xar tomonlama chukuplashishi uchun kulay sharoit xozirlandi. Garchi mamlakat siyosiy tizimida isloxotlar davom etayogan bulsada , utgan davr ichida uning asosiy yunalishlari shakllanib buldi».Ishtirokchilaring barchalariga matnni ukib chikishlarini va mazmun-moxiyatini ukib-anglab yetishlarini ayting.Uzingiz tadbir oxirida matn mazmunini ilmiy lekin sodda tilda tushuntirib berishga xarakat kiling.

**Turtinchi tadbir:** Uchinchi kurgazma urniga turtinchisini iling.Unda kuyidagi fikrlar bayon etilmogi kerak: «Uzbekiston iktisodiyotida boskichma-boskich tub isloxotlar utkazilyapti.Dastlabiga dexkonlarga yer berildi. Kishilar mexnat sari ragbatlantirildi. Eski, ma’muriy-burukbozlik usuliga kurilgan boshkaruv tizimi tubdan yangilandi,ortikcha nazorat kiluvchi va taftish utkaziladigan idoralar soni yuk darajaga keltirildi.Bir kancha vazirliklar tugatilib ular urniga faoliyatning moxiyatiga kura bozor munosabatlari talablariga javob bera oladigan xissadorlik (aksionerlik) kompaniyalari,uyushmalar tashkil etildi.Ayni paytda birjalar,savdo uylari singari bozor infrastrukturasi obyektlari barpo etila boshladi.Mamlakatda mulk munosabatlari chukur islox kilindi.Mulkni davlat tasarrufidan chikarish va xususiylashtirish jarayonini tezlashtirish tadbirlari

kurildi».Matnni barcha ukuvchilarning dikkatini jalb etgan xolda ukib bering,yangiliklarni bilib olishlarini iltimos kiling xamda matn mazmun-moxiyatini ishtirokchilar yoshiga mos xolda lugatlardan foydalanib tushuntirishga xarakat kiling.

**Beshinchi tadbir:** Turtinchi kurgazmani beshinchi kurgazmaga almashtiring.Unda kuyidagi fikrlar bitilgan: «Mamlakatimizda istikomat kiluvchi,yashab-faoliyat kursatuvchi xar bir shaxs,shu jumladan Siz-biz xam uz Vatanimizni chin dildan sevamiz,u bilan faxrlanamiz.Vatanga bulgan muxabbat bu – vatanparvarlik timsolidir.Vatanni sevuvchi kishi esa xakikiy vatanparvardir.

Uzbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 1-moddasida kayd etilganki: «Uzbekiston-suveren demokratik respublika.Davlatning «Uzbekiston Respublikasi» va «Uzbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi».Demak bu xar iki atama xam sevimli mustakil, xalkparvar davlatimiz ifodasidir.

